

O‘ZBEKISTONDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RAQAMLASHGAN BOZOR MUNOSABATLARIGA TRANSFORMATSIYALASHNING IQTISODIY ASOSLARI

Rajabov Sirojiddin Mansurovich

Buxoro viloyati kichik biznesga ko‘maklash markazi direktori, magistr

sirojiddin.rajabov1985@gmail.com

Annotatsiya: Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning yangi usul va metodlari taraqqiy etib borayotgan bir sharoit hamda raqamli texnologiyalar inson hayotining ajralmas qismiga aylangan bir davrda manfaatli iqtisodiy harakatni amalga oshirish kreativ iqtisodiy yondashuvga ehtiyoj sezadi. Texnik taraqqiyot iqtisodiy bilimlarda yangicha qarash va g‘oyalarni, zamonaviy ish uslublari va bilimlarni, shuningdek, yangicha tartibot va tizimlarga moslashishni va shu asoslarga tayangan holda taraqqiy etishni talab qilmoqda. Quyida zamonaviy iqtisodiyot, raqamli texnologiyalar va tadbirkorlikni o‘zaro uyg‘unlashtirish asosida ishlab chiqilgan nazariy va amaliy jihatlarni o‘z ichiga olgan ma‘lumotlar atroflicha o‘rganiladi va tahlilga tortiladi. Olingan ma‘lumotlar va tahlil natijalari umumlashtirilib, O‘zbekistonda raqamli iqtisod sharoitida tadbirkorlik subyektlari faoliyatining barqarorligi va samaradorligiga erishishning iqtisodiy asoslariga oid xulosalar chiqariladi. Tadbirkorlarni qo‘llab quvvatlashga xizmat qiladigan iqtisodiy bilimlarning mazmun-mohiyatini tushuntirishga oid aniq yo‘naltirilgan bilimlar tartibga solinadi.

Kalit so‘zlar: *raqamli iqtisod, elektron hukumat, bank, axborot, kompetensiya, platforma, portal, IT-park.*

ECONOMIC FOUNDATIONS FOR THE TRANSFORMATION OF ENTREPRENEURIAL ACTIVITY IN UZBEKISTAN BASED ON THE DIGITILIZATION OF MARKET RELATIONS

Rajabov Sirojiddin Mansurovich

Director of the small business support center of Bukhara region, master’s student

sirojiddin.rajabov1985@gmail.com

Abstract: In the conditions when new methods and techniques for developing entrepreneurial activity are being developed, and digital technologies have become an integral part of human life, the implementation of profitable economic activity requires a creative economic approach. Technological progress requires new perspectives and

ideas in economic knowledge, modern methods of work and knowledge, as well as adaptation to new procedures and systems and development on these foundations. Below, the information will be studied and analyzed in detail, including theoretical and practical aspects developed on the basis of the integration of the modern economy, digital technologies and entrepreneurship. The obtained data and results of the analysis are summarized and conclusions are made regarding the economic foundations for achieving sustainability and efficiency of business entities in the digital economy of Uzbekistan. Specific knowledge is organized in such a way as to explain the essence of economic knowledge that serves to support entrepreneurs.

Key words: *digital economy, e-government, banking, information, competencies, platform, portal, IT park.*

ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ТРАНСФОРМАЦИИ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ НА ОСНОВЕ ЦИФРОВИЗАЦИИ РЫНОЧНЫХ ОТНОШЕНИЙ

Ражабов Сирожиддин Мансурович

Директор центра поддержки малого бизнеса Бухарской области, магистр

sirojiddin.rajabov1985@gmail.com

Аннотация: В условиях, когда разрабатываются новые методы и приемы развития предпринимательской деятельности, а цифровые технологии стали неотъемлемой частью жизни человека, реализация прибыльной экономической деятельности требует творческого экономического подхода. Технический прогресс требует новых перспектив и идей в экономических знаниях, современных методов работы и знаний, а также адаптации к новым процедурам и системам и развития на этих основах. Ниже будет подробно изучена и проанализирована информация, включающая теоретические и практические аспекты, разработанные на основе интеграции современной экономики, цифровых технологий и предпринимательства. Полученные данные и результаты анализа обобщены и сделаны выводы относительно экономических основ достижения устойчивости и эффективности деятельности субъектов предпринимательства в цифровой экономике Узбекистана. Конкретные знания организованы таким образом, чтобы объяснить суть экономических знаний, которые служат поддержке предпринимателей.

Ключевые слова: *цифровая экономика, электронное правительство, банкинг, информация, компетенции, платформа, портал, ИТ-парк.*

KIRISH

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD), BMTning Savdo va Taraqqiyot Konferensiyasi (UNCTAD), Xalqaro Telekommunikatsiya Ittifoqi (ITU), Jahon Banki (WB), Jahon Iqtisodiy Forumi (WEF), Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (IMF), Global System for Mobile Communications Association (GSMA), Jahon Savdo Tashkiloti (WTO) kabi xalqaro tashkilotlar raqamli iqtisodiyot, sun'iy intellekt, raqamli soliq, internet boshqaruvi, raqamli innovatsiyalar, raqamli bozorlar, e-tijorat, raqamli raqobat, keng polosali internet, raqamli transformatsiya, raqamli savodxonlik, texnologik inklyuziya, 4-sanoat inqilobi, raqamli texnologiyalar va xavfsizlik, global texnologik raqobat bilan bo'g'liq masalalarni tadqiq qilish ishlari doirasida zaruriy dasturlarni amalga oshirib kelmoqda. Qolaversa, ushbu tashkilotlarning turli tuzilmalari tomonidan dunyoning turli mamlakatlarida raqamli iqtisodning joriy etilishi va holati to'g'risidagi hisobotlari e'lon qilinayotganligi ushbu jarayonlarning dolzarbligini va tadqiq etish zaruratini yuzaga chiqaradi.

AQSHning Massachusetts texnologiya instituti Raqamli iqtisodiyot bo'yicha tashabbusi departamenti, Bruklings institutining Texnologiya innovatsiyalari markazi, Stenford raqamli iqtisodiyot laboratoriyasi, Buyuk Britaniyaning Oksford Internet instituti (Oksford universiteti), London Iqtisodiyot maktabining (LSE) OAV va kommunikatsiyalar bo'limi, Germaniyaning Leybnits Yevropa iqtisodiy tadqiqotlar markazi (ZEW), Fraunhofer tizimlar va innovatsion tadqiqotlar instituti, Xitoyning Tsinghua universitetining Ilmiy fanlar markazi, Xitoy Ijtimoiy fanlar akademiyasining (CASS) Sanoat iqtisodiyoti instituti, Shvetsiyaning Shvetsiya tadqiqot institutlari (RISE), Singapurning Singapur Milliy Universitetining Ilmiy fanlari tadqiqotlari markazi, Yaponiyaning Iqtisodiyot ilmiy-tadqiqot instituti (RIETI), Rossiyaning Rossiya Prezidenti huzuridagi Xalq xo'jaligi va davlat boshqaruvi akademiyasi (RANEP) kabi o'nlab tadqiqot institutlarida raqamli iqtisodiyotga o'tishning muhim strategik omillari va muammolari doirasida ko'plab tadqiqotlar olib borilmoqda.

So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyoti rivojlantirishda Xalqaro bozor tamoyillariga asoslanishga katta urg'u berilib, tadbirkorlik faoliyatini raqamlashtirish va uni zamonaviy bosqichga olib chiqish, iqtisodiyotni raqamlashgan bozor munosabatlariga moslashtirish, mamlakatda iqtisodiy o'sish, samaradorlik va shaffoflikni oshirish zaruratiga ehtiyoj sezmoqda. "Yangi asrda raqamli texnologiyalarga asoslangan, elektron biznes va elektron tijoratni nazarda tutuvchi raqamli iqtisodiyotning shakllanishi tendensiyaviy tus oldi. Jahonning yetakchi mamlakatlarida raqamli iqtisodiyot yalpi ichiki mahsulotning 4-5 foizini ta'minlamoqda, jahondagi savdo aloqalarining 15 foizdan ko'prog'i uning hissasiga to'g'ri kelmoqda. Bugun kunda raqamli iqtisodiyot elektron savdo va servis bilan cheklanmasdan ta'lim, sog'liq saqlash kabi sohalarni ham qamrab olmoqda. Fuqarolarga turli xizmat ko'rsatish amaliyoti ham elektron hukumat platformasiga

o'tkazilmoqda"¹. Yuqorida sanab o'tilgan asoslar mavzuning dolzarbligini belgilab, raqamli iqtisodiyot sharoitida mamlakatimizdagi kichik va o'rta biznesni rivojlantirishning iqtisodiy asoslarini ilmiy jihatdan tadqiq qilish zaruratini yuzaga chiqaradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ikkinchi jahon urushidan so'ng sodir bo'lgan iqtisodiy o'sish natijasida dunyo iqtisodiyotida hisoblash texnikalari va dasturlariga bo'lgan ehtiyojni oshirdi. Ayniqsa, AQSHda mamlakatning barcha sohalaridagi ma'lumotlarni umumlashtirishga doir urinishlar boshlanib, aholini ro'yxatga olish, statistik hisobotlarni tayyorlash, bank aylanmalari va hisobotlari, sug'urta hisoblari, buxgalteriya va ofis ishlarida talab etiladigan hisoblash mexanizmlari va tizimlari yaratishga doir davlat dasturlari va loyihalariga katta mablag' ajratildi. Natijada, bosqichma bosqich bu sohada yangilik va o'zgarishlar kuzatilib raqamli iqtisodning poydevori bo'lib xizmat qiladigan platforma va dasturiy ta'minotlar tizimlari yaratildi (1-jadval).

1-jadval²

Sohada ishlab chiqilgan platforma va dasturiy ta'minot tizimlari

| Ishlab chiqilgan davri | Dastur va platforma nomlari | Xizmat sohasi | Izoh |
|------------------------|--|---|--|
| 1951 | UNIVAC I | Ma'lumotlarni tayyorlash va qayta ishlash | AQSH aholini ro'yxatga olish byurosi tomonidan iqtisodiy statistiklarni qayta ishlash uchun ishlatilgan. Bu — raqamli iqtisod uchun dastlabki avtomatlashtirish vositalaridan biridir. |
| 1957 | SAP (ERP ildizlari) | Resurslarni yo'naltirish va boshqarish | SAP asoschilari keyinchalik ERP (Enterprise Resource Planning) tizimlarini yaratdilar, bu tizimlar bugungi raqamli iqtisod asosidir. |
| 1960-yillar | COBOL dasturlash tilida yozilgan dasturlar | Hisob-kitob, bank, buxgalteriya | Banklar va sug'urta kompaniyalari COBOL asosidagi dasturlar orqali ma'lumotlarni avtomatlashtirishdi. |
| 1970-yillar | Oracle DBMS (1977) | Ma'lumotlar bazasi | Moliyaviy, tijorat va davlat ma'lumotlarini saqlash va ishlov berishga xizmat qilgan. |

¹ Mirziyoyev, Shavkat. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2022. – B. 174

² Ushbu jadval quyidagi havolalarda keltirilgan ma'lumotlarning tahlili asosida ishlab chiqildi.

1. https://www.si.edu/object/univac-i-computer:nmah_334663; 2. <https://www.sap.com/about/company/history.html>;

3. <https://www.ibm.com/docs/en/cobol-zos/6.3?topic=applications-history-cobol>.

4. <https://www.oracle.com/corporate/history/>; 5. <https://computerhistory.org/blog/lotus-1-2-3-released/>.

| | | | | |
|------|--------------------------|-----------------|-------------------------------------|--|
| 1981 | Lotus (IBM uchun) | 1-2-3 PC | Elektron jadvallar, moliyaviy hisob | Ofis ishlarida va buxgalteriyada inqilob qildi. Microsoft Excel undan keyin paydo bo'lgan. |
|------|--------------------------|-----------------|-------------------------------------|--|

Raqamli iqtisodni o'rganishga qaratilgan ilmiy izanishlar o'tgan asrning 90-yillarida amalga oshirilib, ushbu ilmiy faoliyatni asosan g'arb mamlakatlardagi olimlar jamoasi amalga oshirdi. Jumladan, amerikalik olim Nikolas Negroponte va kanadalik olim Don Tapskotlar o'zlarining ilmiy nashrlarida raqamli iqtisod atamasining mazmun mohiyatini izohlashga yo'naltirilgan fikr va qarashlarini keng jamoatchilikka taqdim etadi. Tapskopning qarashlari va nazariyalari raqamli iqtisodning shakllanishi uchun asos sanalib, asarda raqamli iqtisod atamasida sharhlar, raqamli iqtisodning afzalliklari va kamchiliklari, uning iqtisodiy munosabatlar taraqqiyotida tutgan o'rni, ijtimoiy jarayonlarga ta'siri masalalarini bayon qildi³.

Dunyoning yetakchi iqtisodchi olimlari Manuel Castells, Carl Shapiro, Yochai Benkler, Erik Brynjolfsson, Nick Srnicek, Klaus Schwab, Shoshana Zuboff kabi olimlarning tadqiqotlarida ham raqamli iqtisod va uning taraqqiyotiga aloqor ko'plab ilmiy asoslar yaratildi⁴. Ularning asarlarida raqamli texnologiyalar oddiy vosita sifatida emas, balki iqtisodiy tuzilmalarni, mehnat munosabatlarini va siyosiy hokimiyatni tubdan o'zgartiruvchi kuch ekanligi asoslab berildi. Ular platforma va tarmoqlarning yangi iqtisodiy model ekanligi, ma'lumotlar va axborotlarning yangi kapital ekanligini, tengsizlik, hokimiyat va erkinlik masalalarini hal qilishning zamonaviy vositasi ekanligini, qolaversa, inson kapitalini boshqarishning hamda yangi mehnat munosabatlari va ish maydonlarini hosil qiladigan imkokoniyat ekanligini o'zlarining qarash va nazariyalarida asoslab beradilar. Masalan, Manuel Castellsning qarashlarida axborot davri jamiyatiga oid nazariyariyalar yetakchilik qilib, raqamli iqtisod "tarmoq jamiyati" asosida shakllanishi va kapitalizmning yangi bosqichi yuzaga chiqishini asoslab beradi. Uning fikricha kapitalizmning yangi bosqichi "Informatsion kapitalizm" deb nomlanib, bu jamiyatda umumlashgan bilim, aloqa tarmoqlari va axborot texnologiyalari bozorni harakatga keltiruvchi asosiy kuchga aylanishi asoslab berilgan. Uning xulosalariga ko'ra raqamli iqtisodiyotda asosiy boylik "informatsiya va aloqalar oqimi" bo'lib qoladi.

³ Don Tapscott. The Digital Economy: Promise and Peril in the Age of Networked Intelligence. New York. McGraw-Hill. 1995. -342 page. ISBN (0070622000)

⁴ 1. Manuel Castells. The Rise of the Network Society. Cambridge. Blackwell Publishers. 1996. XVII, - 556 page; 2. Carl Shapiro, Hal Varian. Information Rules: A Strategic Guide to the Network Economy. Boston, Massachusetts. Harvard Business School Press. 1998. – X. - 352 pages; 3. Yochai Benkler. The Wealth of Networks: How Social Production Transforms Markets and Freedom. New Haven, Connecticut. Yale University Press. 2006. XII. – 527 pages; 4. Erik Brynjolfsson. The second machine age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies. New-York. W. W. Norton & Company. 2014. – 336 pages; 5. Nick Srnicek. Platform Capitalism. Cambridge. Polity Press. 2016. – 171-pages; 6. Klaus Schwab. The Fourth Industrial Revolution. New York. Crown Business. 2017. – 192 pages; 7. Shoshana Zuboff. The Age of Surveillance Capitalism: The Fight for a Human Future at the New Frontier of Power"New York. PublicAffairs. 2019. – X. 691-page.

Axborot iqtisodiyoti bo'yicha mutaxassis Carl Shapironing qarashlarida axborot tovarlari — raqamli iqtisodning o'ziga xos mahsuli ekanligi asoslanib, raqamli bozorning ustunlik jihati sifatida tarmoqli effektlar, past marginal xarajatlar va standartlashtirishni ko'rsatib o'tadi. "The Wealth of Networks" asarining muallifi Yochai Benkler kooperativ raqamli iqtisod tarafdori bo'lib, uning qarashlarida raqamli iqtisodda nodavlat va norasmiy hamkorliklar asosiy ahamiyat kasb etishi tushuntirib beradi. Qolaversa uning qarashlarida "ixtiyoriy hamkorlik" va "peer production" (o'zaro ishlab chiqarish) modeli asoslab berilib, raqamli iqtisodda nafaqat bozor va davlat, balki keng jamoaviy axborot almashinuvi ham barqaror rivojlanishga xizmat qilishni ilmiy jihatdan asoslaydi. Raqamli texnologiyalar va mehnat bozorida o'zgarishlar mutaxassisi Erik Brynjolfsson sun'iy intellekt, avtomatlashtirish va platforma iqtisodi mehnat bozorini tubdan o'zgartirib yuborishini va raqamli iqtisodda inson kapitalida yangicha ko'nikmalar va talablarning yuzaga kelishini o'zining qarashlarida ifodalaydi. Uningcha innovatsiyalar iqtisodiy o'sishni tezlashtirib, iqtisodiy tengsizlik xavfini ham yuzaga chiqaradi. Aqliy salohiyat va raqamli savodxonlik kelajak mehnatining asosiga aylanishini o'zining nazariyalari orqali tushuntirib beradi. Ularning qarashlari va iqtisodiy xulosalariga ko'ra texnologiyalarning raqamli iqtisodiyotga ta'siri quyidagicha ko'rinish hosil qiladi (2-jadval).

2-jadval⁵

Texnologiyalarning raqamli iqtisodiyotga ta'siri

| Texnologiya turi | Qisqacha tavsif | Raqamli iqtisodga ta'siri |
|-------------------------------------|---|---|
| Bulutli hisoblash (Cloud computing) | Ma'lumotlar va dasturlarni internet orqali masofadan ishlatish | Xarajatlarni kamaytiradi va moslashuvchanlikni oshiradi |
| Katta ma'lumotlar (Big Data) | Juda katta va murakkab ma'lumotlar to'plamini saqlash, qayta ishlash va tahlil qilish texnologiyasi | Bozor tendensiyalarini aniqlash, mijozlar xulqini tahlil qilish |

⁵ Ushbu jadval quyidagi havolalarda keltirilgan ma'lumotlarning tahlili asosida ishlab chiqildi. 1. NIST. (2011). *The NIST Definition of Cloud Computing*. <https://nvlpubs.nist.gov/nistpubs/Legacy/SP/nistspecialpublication800-145.pdf>; 2. Manyika, J. et al. (2011). *Big Data: The next frontier for innovation, competition, and productivity*. McKinsey Global Institute. <https://www.mckinsey.com/business-functions/mckinsey-digital/our-insights/big-data-the-next-frontier-for-innovation>; 3. Stanford Institute for Human-Centered AI. (2024). *AI Index Report 2024*. <https://aiindex.stanford.edu/>; 4. World Economic Forum. (2016). *The future of financial infrastructure: An ambitious look at how blockchain can reshape financial services*. https://www3.weforum.org/docs/WEF_Building_Blockchain.pdf; 5. Cisco Systems. (2023). *Internet of Things Overview*. <https://www.cisco.com/c/en/us/solutions/internet-of-things/overview.html>; 6. SAP. (n.d.). *What is ERP?*. <https://www.sap.com/products/erp/what-is-erp.html>; 7. Salesforce. (n.d.). *What is CRM?*. <https://www.salesforce.com/crm/what-is-crm/>; 8. World Bank. (2022). *Digital Financial Services*. <https://www.worldbank.org/en/topic/financialinclusion/brief/digital-payments>; 9. NIST. (2018). *Framework for Improving Critical Infrastructure Cybersecurity*. <https://www.nist.gov/cyberframework>.

| | | |
|---|---|--|
| Sun'iy intellekt (AI) va mashinali o'rganish (ML) | Ma'lumotlardan mustaqil ravishda xulosa chiqarish, avtomatik qaror qabul qilish imkonini beradi | Chatbotlar, avtomatik moliyaviy tahlil, kredit reytingi |
| Blokcheyn (Blockchain) | Markazlashtirilmagan, xavfsiz va o'zgartirib bo'lmaydigan ma'lumotlar bazasi | Moliyaviy operatsiyalar, kontraktlar, kriptovalyutalar |
| Internet narsalar (IoT) | Qurilmalar va buyumlarning internetga ulangan holda ishlashi | Aqlli ishlab chiqarish, logistika va energiya boshqaruvi |
| ERP tizimlari (Enterprise Resource Planning) | Korxonalar resurslarini boshqarish tizimlari | Buxgalteriya, ishlab chiqarish, ta'minot, kadrlar boshqaruvi |
| CRM tizimlari (Customer Relationship Management) | Mijozlar bilan aloqalarni boshqarish tizimi | Mijozlar ehtiyojini tahlil qilish, savdoni ko'paytirish |
| Raqamli to'lov tizimlari (PayTech) | Elektron to'lov, mobil banking, onlayn tranzaksiyalar | Savdo va moliyaviy muomalalarni tezlashtiradi |
| Kiberxavfsizlik (Cybersecurity) | Ma'lumotlar va tizimlarni himoya qilish | Raqamli infratuzilmaning barqarorligi uchun zarur |

Rossiya Federatsiyasida ham raqamli iqtisodiyot yo'nalishida bir guruh olimlar shakllangan bo'lib, ularning g'oyalari va ilmiy yondashuvlarida raqamli texnologiyalar iqtisodiy o'sishning yangi drayveriga aylanishi, raqamli tizimlar ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishi va tejamkorlikni oshirishi, raqamlashtirish ko'nikmalar talabini o'zgartirishi va an'anaviy kasblarning yo'qolishini, raqamli iqtisodiyotda fiskal siyosatni muvofiqlashtirish zarurligini, elektron hukumat va raqamli xizmatlar orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish yo'llarini asoslab beradilar. Jumladan, T.V.Gudkova yangi texnologik inqiloblar natijasida iqtisodiyotni transformatsiyalash haqida fikr yuritadi⁶. Qoleversa, rus olimlaridan N.A.Gvilya, M.B.Leonov, A.O.Babichovlarning tadqiqot ishlarida raqamli iqtisodiyot sharoitida tadbirkorlik faoliyatini olib borishning zamonaviy tendensiyalari, raqamli sharoitga moslashishning nazariy-metodologik asoslari ilmiy asoslangan⁷.

⁶ Гудкова Т. В. Трансформация фирмы в условиях цифровой экономики. Автореф. дисс. на соиск. учен. степ. док. эконом. наук... Москва – 2023. – 41 стр.

⁷ 1. Гвилья Н.А. Цифровая трансформация корпоративной логистики в условиях устойчивого развития. Автореф. дисс... на соиск. учен. степ. док. эконом. наук. Санкт-Петербург – 2022. – 41 стр; 2. Леонов М.В. Теория и методология формирования банковских экосистем в условиях цифровизации. Автореф. дисс... на соиск. учен. степ. док. эконом. наук. Казань – 2023. – 51 стр; 3. Бабичев А.О. Теоретико-методическое обоснование развития цифровой инновационной экосистемы экономики региона. Автореф. дисс... на соиск. учен. степ. кан. эконом. наук. Курск – 2024. – 27 стр.

METODOLOGIYA


Mavzuning nazariy asosini institutsional iqtisodiyot, innovatsion iqtisodiyot va raqamli iqtisodiyot nazariyalari tashkil etib, bunda raqamli infratuzilmalar va tartibotlarning tadbirkorlik faoliyatiga ta'siri masalalariga, raqamli texnologiyalarni joriy qilish, innovatsion transformatsiyaning shakllari va raqamli texnologiyalar asosida yangi xo'jalik yuritish mexanizmlari shakllanishining nazariy asoslari atroflicha o'rganildi. Tadqiqot obyekti sifatida O'zbekistondagi tadbirkorlik faoliyati tizimini o'rganish, predmeti etib raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali tadbirkorlikning transformatsiyalanish jarayonlari va iqtisodiy samaradorligi masalalarini tadqiq etish belgilandi. Sistemali, kompleks, tarmoqlararo, tarixiy-taqoslov kabi metodologik yondashuvlardan foydalanishni maqsadmuvofig deb bildik. Maqolaning mazmunini boyitishda statistik tahlil, SWOT-tahlil, komparativ tahlil va prognozlash kabi iqtisodiy-tahlil usullaridan foydalandik. Tadqiqotning amaliy asosi sifatida Davlat statistika qo'mitasi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Digital Uzbekistan va xalqaro tashkilotlarning hisobotlardan foydalandik.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Har bir davlat o'zining taraqqiyot yo'lini belgilar ekan, albatta xorijiy tajriba va zamonaviy bilimlarga tayangan holda ish ko'radi. Xalqaro tajribani o'rganish amallga ohirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyatini anglash bilan birga, jarayonlarni to'g'ri tashkil etish imkonini beradi. Tadbirkorlik subyektlarini raqamli bozor munosabatlariga transformatsiyalashning xalqaro tajribasini o'rganish maqsadida AQSH, Germaniya, Estoniya, Xitoy, Janubiy Koreya, BAA va Sigapur kabi davlatlarga borib tajriba almashib kelingan. Jumladan, o'zbekistonliklar raqamli hukumat, elektron xizmatlar va raqamli biznesni rivojlantirish bo'yicha ilg'or davlatlardan biri Singapurga borib "GovTech" va "Smart Nation" loyihalari ijtimoiy-iqtisodiy hayotning turli sohalariga tadbiq etish tajribasini o'rgandi. Germaniyadan raqamli dasturlarni yaratish tajribasi, sanoat transformatsiyasi (Industrie 4.0) va SME digitization tajribasi o'rganildi. Elektron tizimlarni yaratish va tadbiq etishda Janubiy Koreyalik mutaxassislarining xizmatlari yuqori bo'lib, ular texnologik innovatsiyalar va smart economy (aqlli iqtisodiyot) bo'yicha, IT Park, elektron hukumat, startap ekotizimlari va raqamli transformatsiyaga oid ko'nikmalarni shakllantirishda muhim amaliy yordam berildilar. Koreyalik mutaxassislar ishtirokida 2021–2023-yillarda O'zbekiston-Koreya hamkorlik forumlari tashkil etilib, elektron axborot tizimlarini mamlakatimizga tadbiq etish borasida katta amaliy qadamlar tashlandi.

Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotning shakllanishi uch tarixiy bosqichda amalga oshirilgan bo'lib, dastlabki bosqichi mamlakatimizning bank tizimini takomillashuvi fonida yuz berdi. Banklar dastlab o'zaro aloqalarni elektron tizimlarning ilk ko'rinishlari hisoblangan elektron pochta va maxsus aloqa vositalariga

tayangan holda o‘rnatgan. 1997-yilga kelganda barcha banklar o‘zaro hisob-kitoblari to‘liq avtomatlashtirilgan rejimda bajarib, banklararo elektron to‘lovlarning davriyligi 3–15 daqiqani tashkil etgan. Banklar 2000-yilning boshlarida plastik kartochkalar, mobil banking, internet banking kabi zamonaviy elektron xizmatlarni bosqichma-bosqich joriy etishga muvaffaq bo‘lib, o‘z davridagi barcha iqtisodiy operatsiyalarni va pul o‘tkazmalarini electron ko‘rinishda amalga oshirish imkoniyatini qo‘lga kiritdi. Bu jarayon tadbirkorlik sub`yektlarining raqamli tizimlar asosida o‘z moliyaviy faoliyatini amalga oshirishga imkoniyat yaratdi. Pulni saqlash, uzatmalar amalga oshirish, to‘lovlar va boshqa bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyati tadbirkorlik subyektlarining raqamli iqtisodiyotning ishtirokchisiga aylantirib bordi. Fuqarolarning va tadbirkorlarning raqamli iqtisodiy jarayonlar ishtirokchiligi makonining kengayishi 2004-yildan boshlab UzCard tizimi, keyinchalik esa Humo kartalari orqali keng ko‘lamli elektron to‘lovlar yo‘lga qo‘yilishi natijasida sodir bo‘ldi. Natijada bozor munosabatlari ishtirokchilariga raqamli iqtisodiy tartibotlardan foydalanish manfaatli ekanligi va ularni qo‘llash zamaradorligi rivojlanish imkonini berishiga oid qarashlar shakllana bordi. Natijada banklar raqamli iqtisodda vositachi emas, balki platforma rolini o‘ynadi. Iqtisod sohasidagi innovatsiyalarni boshlab beruvchisi va yaratuvchisi ekanligini amaliy harakatlarida ko‘rsatib berib, moliyaviy inkluzivlikni, tezlikni va xavfsizlikni ta’minlab berdi (1-rasm).



1-rasm. Iqtisod sohasidagi innovatsiyalarning imkoniyatlari

Barcha mamlakatlarda bo‘lgani kabi O‘zbekistonda ham raqamli iqtisodiy munosabatlarni boshlab bergan banklardagi iqtisodiy o‘rishlar hukumatda davlat organlari faoliyatini raqamlashtirishga rag‘bat uyg‘otib, ikkinchi bosqich sanalgan elektron hukumat tizimining shakllanishiga turtki berdi. Raqamlashgan munosabatlarda shaxslararo aloqa electron shaklda bo‘lib, bu jarayonda munosabatlarning subyektiv jihatlari yo‘qolib boradi. Byurokratik to‘siqlar, korrupsion

holatlar va qonunlarni moslashtirish imkoniyatini pasayadi. Davlat va fuqaroning o‘zaro munosabatlarini shaffoflashib, fuqarolarning mulkiy munosabatlarga kirishib borishiga imkoniyat yaratiladi. 2013-yilda raqamlashtirish va zamonaviy boshqaruv uslublaridan samarali foydalanish va shu orqali davlat va fuqarolarning o‘zaro aloqasini takomillashtirish, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, itqisodiy taraqqiyotni zamonaviy bosqichga olib chiqish maqsadida “Elektron hukumat” tizimini rivojlantirish markazi etildi⁸. Ushbu markaz faoliyatining quyidagi vazifalari bevosita biz tadqiq qilayotgan raqamli iqtisod sohasiga yo‘naltirilgan. Jumladan, Markazning raqamli iqtisodiyotni tartibga solish sohasidagi vakolatlarni rivojlantirish bo‘yicha uslubiy asos, shuningdek, elektron tijorat sohasidagi tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, davlat boshqaruvida raqamli platformalar va elektron boshqaruv texnologiyalarini ishlab chiqish va joriy etish, Elektron tijorat subyektlari milliy reyestrini shakllantirish, yuritish va yanada takomillashtirish kabi muhim vazifalari ijrosining ta‘minlanishi mamlakatimizda raqamli iqtisodiy munosabatlarning takomillashuvi uchun zamin yaratib beradigan ilmiy xulosalarni ishlab chiqilishiga va amaliy ishlarni tizimlashtirishga ko‘maklashdi.

“Elektron hukumat” tizimini joriy etish, faoliyatini takomillashtirish va ishlash samaradorli oshirish yuzasidan 23 ta normativ huquqiy hujjatlar ishlab chiqilgan. Natijada, davlat xizmatlari sohasida katta o‘zgarishlar sodir bo‘lib, fuqarolarga 400 dan ortiq davlat xizmatlari amalga oshirilmoqda. 150 dan ortiq davlat xizmatlari bevosita tadbirkorlik faoliyatiga daxldor bo‘lib, tadbirkorlik subyektlarining muammo va yuzaga kelayotgan to‘siqlarini bartaraf etishga ko‘maklashmoqda. Yo‘nalish va tarmoqlar bo‘yicha tahlil qiladigan bo‘lsak tadbirkorlikni ro‘yxatdan o‘tkazish, soliq va moliya xizmatlari, litsenziyalash va ruxsatnomalar berish sohalarida tadbirkorlarga xizmatlar ko‘lami kengroq sanaladi.

3-jadval

Elektron hukumat tizimida xizmatlar

| T/R | Yo‘nalish | Elektron xizmatlar soni |
|-----|--|-------------------------|
| 1. | Biznesni ro‘yxatdan o‘tkazish va yuritish | 20+ |
| 2. | Soliq va moliya xizmatlari | 30+ |
| 3. | Litsenziya va ruxsatnomalar | 25+ |
| 4. | Tashqi iqtisodiy faoliyat (eksport/import) | 15+ |
| 5. | Kadastr, mulk huquqlari | 10+ |
| 6. | Davlat xaridlari va tenderlar | 10+ |
| 7. | Mehnat va migratsiya xizmatlari | 10+ |
| 8. | Statistika va hisobot topshirish | 10+ |

⁸ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 16-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi huzuridagi “Elektron hukumat” tizimini rivojlantirish markazi hamda Axborot xavfsizligini ta‘minlash markazi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 250-sonli qarori. (<https://www.lex.uz/uz/docs/-2237916>)

| | | |
|-----|--|-----|
| 9. | Savdo va reklama faoliyati uchun ruhsatlar | 5+ |
| 10. | Energiya, gaz, suv ulash xizmatlari | 10+ |

Tadbirkorlarga xizmatlar asosan yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz), litsenziya va ruxsatnomalar portali (license.gov.uz), yuridik shaxslar uchun xizmatlari (fo.buxgalter.uz), soliq hisobotlari va to'lovlar (soliq.uz/my.soliq.uz), tashqi savdo faoliyati (customs.uz) va davlat xaridlari (tender.mc.uz) saytlari orqali amalga oshirilgan bo'lib, ushbu palatforma, portal va saytlar orqali amalga oshirib kelinmoqda.

O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot shakllanishining uchinchi bosqichi raqamli bozorlar va savdo maydonlarining ommalashuvi bilan bog'liq bo'lib, bu jarayonda mamlakat aholisining aksariyati electron bozorda ishtirok etishning texnik imkoniyatiga ega bo'ldi. Global mobil ekotizim bo'yicha chuqur statistik ma'lumotlar, tahlil, prognoz va strategik hisobotlar to'plamini taqdim etuvchi yetakchi platforma hisoblangan GSMA Intelligencening ma'lumotlariga ko'ra O'zbekistonda 2020-yilda smartfonlarning soni 17 million, shaxsiy komyuterlar 2 millionga yaqin va internetdan foydalanuvchilarning soni 22 million kishini tashkil etgan. Yuqoridagi ma'lumotlar shuni tasdiqlab turibdiki raqamli makonda tadbirkorlar uchun keng imkoniyatlar mavjud bo'lib, bu orqali tadbirkorlar bozor hajmini kengaytirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Raqamli texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyot tadbirkorlarga marketing va reklama xarajatlari kamaytirishga, savdo maydonlarida uzluksiz (24/7) ishlash imkoniyatiga, savdo xarajatlari kamayishiga, tovarlar va xizmatlarning raqobatbardoshligining oshishiga, moliyaviy shaffoflik va hisobot yuritish osonlashishiga, manfaatli innovatsion yechimlarga, yangi mijozlar va hamkorlarni topishga imkoniyat yaratadi.

Masalaning yana bir muhim jihati shundan iboratki, raqamli iqtisodiyotni mamlakatda barqaror ishlashini ta'minlash va tadbirkorlarni raqamli muhitga moslashtirish hisoblanib, bunda malakali kadrlarning o'rni muhimdir. Raqamli iqtisodiyot sohasida amalga oshirilgan ishlar natijasida O'zbekistonning raqamli iqtisodiyoti sezilarli o'sishni boshdan kechirdi, 2023-yilda Axborotkommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sektori YaIMga 2,1% hissa qo'shdi. 2024-yilga kelib, axborot-kommunikatsiya sohasida faoliyat yurituvchi kompaniyalar soni 10551 taga yetdi. Sanoat rivojlanishining asosiy omili bo'lgan IT-Park hozirda 2500 dan ortiq kompaniyalarni o'z ichiga oladi, AKT eksporti 2022-yildagi 140 million AQSh dollaridan 2023-yilda 344 million AQSh dollariga yetdi. Biroq, mamlakat AKT xizmatlari eksporti va importi bo'yicha jahon miqyosida past o'rinni egallashda davom etmoqda, bu uning cheklangan xalqaro raqobatbardoshligini aks ettiradi⁹.

⁹ O'zbekistonning raqamli iqtisodiyoti. Raqamli tadbirkorlik va su'niy intellekt holati. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. UNDP. Toshkent. 2025. – B. 10.

Xususan, dalillar shuni ko'rsatadiki, tadbirkorning o'z faoliyatida raqamli vositalarni qo'llashi xodimlarning "axborot kompetensiyasi"¹⁰ bilan bog'liqdir. Biroq, kichik va o'rta biznes korxonalari odatda raqamli bilimlardagi bo'shliqlarni boshdan kechirishadi, chunki, korxonaning ishchi kuchida raqamli savodxonlik darajasi past. Raqamli texnologiyalarni sotib olish va undan foydalanish raqamli munosabatlarga o'tisning birinchi qadamlari bo'lib, texnologiyani biznes modeli va jarayonlarga samarali integratsiya qilish uchun strategik qarorlarni ham talab qiladi¹¹. Raqamlashtirish, raqamli transformatsiya, raqamli iqtisodiyotga moslashuv, to'liq raqamli iqtisodiyotga o'tish, innovatsion va intellektual iqtisodiyot bosqichi raqamli iqtisodiyotga o'tishning mantiqiy davomi bo'lib, bu borada mamlakatimiz iqtisodiyoti raqamli jarayonlarga transformatsiyalashish jarayonlarini boshdan kechirmoqda.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki mamlakatimizdagi tadbirkorlik subyektlarining raqamli iqtisodiyotga transformatsiyalash jarayoni quyidagi ehtiyojlarga chambarchas bog'liq. Avvalo, tadbirkorlik subyektlarining raqamli muhitda faoliyat yuritishini ta'minlashga doir normativ huquiy bazani yaratish hamda bu borada tadbirkorlarning huquqiy ongi va madaniyatni yuksaltirish zarur. Soliq va moliyaviy hisobotlarda shaffoflikni oshirib, davlat va tadbirkorlar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni soddalashtirish hamda raqobatbardoshlikni kuchaytirish va innovatsiyalarni rag'batlantirish zarur. Demak, O'zbekistonning to'liq raqamli iqtisodga o'tishi quyidagi muammolarning hal qilinishiga bog'liqdir.

- mamlakatimizda texnologik infratuzilmaning yetarli emasligi;
- aholi o'rtasida raqamli savodxonlikning pastligi;
- ma'lumotlar muhofazasi va raqamli ishonch yuqori emasligi;
- huquqiy va institutsional muammolar ko'pligi;
- biznes muhit va investitsiya cheklovlarining mavjudligi;
- raqamli bozor va ekotizimning rivojlanmaganligi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev, Shavkat. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2022. – B. 174.
2. Carl Shapiro, Hal Varian. Information Rules: A Strategic Guide to the Network Economy. Boston, Massachusetts. Harvard Business School Press. 1998. – X. - 352 pages.
3. Digital Skills for Private Sector Competitiveness in Uzbekistan, OECD. OECD Publishing. Paris. 2023. – P. 15.

¹⁰ Axborot kompetensiyasi - bu axborotdan foydalanuvchining axborotni izlash, tahlil qilish, baholash, qayta ishlash va undan samarali foydalana olish qobiliyatidir

¹¹ Digital Skills for Private Sector Competitiveness in Uzbekistan, OECD. OECD Publishing. Paris. 2023. – P. 15.

4. Don Tapscott. The Digital Economy: Promise and Peril in the Age of Networked Intelligence. New York. McGraw-Hill. 1995. - 342 page.
5. Erik Brynjolfsson. The second machine age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies. New-York. W. W. Norton & Company. 2014. – 336 pages.
6. Manuel Castells. The Rise of the Network Society. Cambridge. Blackwell Publishers. 1996. XVII, - 556 page.
7. Nick Srnicek. Platform Capitalism. Cambridge. Polity Press. 2016. – 171-pages.
8. O‘zbekistonning raqamli iqtisodiyoti. Raqamli tadbirkorlik va su‘niy intellekt holati. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. UNDP. Toshkent. 2025. – B. 10.
9. Shoshana Zuboff. The Age of Surveillance Capitalism: The Fight for a Human Future at the New Frontier of Power"New York. PublicAffairs. 2019. – X. 691-page.
10. Yochai Benkler. The Wealth of Networks: How Social Production Transforms Markets and Freedom. New Haven, Connecticut. Yale University Press. 2006. XII. – 527 pages.
11. Бабичев А.О. Теоретико-методическое обоснование развития цифровой инновационной экосистемы экономики региона. Автореф. дисс... на соиск. учен. степ. кан. эконом. наук. Курск – 2024. – 27 стр.
12. Гвилия Н.А. Цифровая трансформация корпоративной логистики в условиях устойчивого развития. Автореф. дисс... на соиск. учен. степ. док. эконом. наук. Санкт-Петербург – 2022. – 41 стр.
13. Гудкова Т. В. Трансформация фирмы в условиях цифровой экономики. Автореф. дисс. на соиск. учен. степ. док. эконом. наук... Москва – 2023. – 41 стр.
14. Леонов М.В. Теория и методология формирования банковских экосистем в условиях цифровизации. Автореф. дисс... на соиск. учен. степ. док. эконом. наук. Казань – 2023. – 51 стр;
15. <https://www.lex.uz/uz/docs/-2237916>.